



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TATQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya:

Maqolada o‘qituvchilarning tatqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari muhitini samarali shakllantirish va o‘ziga xos jixatlari keltirib o‘tilgan. Zamonaviy ta‘limning mohiyatini yoritish va pedagog faoliyatining keng qamrovda yoritish. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning texnologiyalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar:

O‘qituvchi, Innovatsiya, Innovatsion texnologiya, Innovatsion jarayon, Innovatsion faoliyat, Texnologiya.

**Information about
the authors**

Raximova Dilobar Fayzidinovna,
Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasida talabasi

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna
P.f.f.d., dotsent

Jahonda qaror topaётgan yangi – bilimga asoslangan iqtisodiyatga o‘tish jaraenlarida hal qiluvchi rolni intellektual kapital o‘ynay boshladi. Mamlakatning qay darajada rivojlanganligi uning ayni vaqtda ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish ishlari (Research and Development, R&D)ga bog‘liq hisoblanadi

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishning barqaror tizimi yaratildi. Mamlakatda salohiyatli ilmiy maktablar yaratildi, ilmiy laboratoriya va kafedralar, oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar hamda respublika miqesidagi ilmiy-texnik va ekspert kengashlari shaklidagi ko‘p tarmoqli ilmiy-tashkiliy infratuzilmalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni iqtisodimiz va ijtimoiy haetga joriy etish uchun normativ-huquqiy baza yaratildi. Yurtimiz tarixida ilk bor “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” gi Qonunlar, mazkur sohalarni tartibga soluvchi qonun osti hujjatlari tayèrlandi. Bundan tashqari, davlatimiz tomonidan olimlarning mavqei, obro‘ci, akademik legitimligi oshirildi. Ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish masalalari bugungi kunda jahonda keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Masalan, AQShning Nebraska shtati Linkoln universitetida, Yaponiyaning Vasseda universitetida talabalarning ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirish hamda ularning ilmiy, ijodiy fikrlarini o‘stirish ya‘ni ijodiy-tanqidiy fikrlashga o‘rgatish masalalari bo‘yicha “Independent work» to‘garagi tashkil qilingan. “Independent work» talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltiruvchi to‘garaklar sifatida tashkil qilingan bo‘lib, u to‘garaklarda talabalarni bevosita ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish, iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni o‘zi xohlagan yo‘nalishlarga yo‘naltirish masalalari bo‘yicha ishlar olib borilmoqda[4].

“Innovatsion jarayonlar” tushunchasining to‘liq tavsifi XX asrning boshlarida, aniqrog‘i 1911 yilda iqtisodiyotchi I.Shumpeter tomonidan iqtisodiy tizimlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilishning “yangi kombinatsiyasi”ni tahlil qilish jarayonida taqdim etilgan.



1930 yillarda I.Shumpeter va G.Menshlar yangi texnologiya yoki mahsulotdagi ilmiy kashfiyotni tavsiflovchi “innovatsiya” tushunchasini fanga kiritishgan. 1970 yillarda zamonaviy postindustrial dunyoning rivojlanish vektorini aniqlab beruvchi “innovatsion jamiyat” tushunchasining paydo bo‘lishi yangiliklar kiritish haqidagi fanning murakkab, keng tarqalgan sohaga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an‘anaviy me‘yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi qo‘llanilayotgan me‘yorining mavjud me‘yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga keluvchi majmual muammolarning yechimiga qaratilgan faoliyatdir.

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta‘lim muassasalariga eng ustivor vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta‘lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiytadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta‘minlash;
- jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta‘lim muassasasida ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni belgilash, ushbu yo‘nalishlarda yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va talabalar salmog‘ini oshirish[1].

Innovatsion salohiyat deganda, alohida pedagogning va yaxlitlikda pedagogik jamoaning yangilikni o‘zlashtirishga tayyorligi, ulardan amaliyotda foydalana olishi va kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish olishi tushuniladi. Pedagogika va pedagogik menejmentda innovatsion salohiyat tushunchasi ikki xil tarzda talqin etiladi: keng ma‘noda – ta‘lim muassasasining innovatsion salohiyati, tor ma‘noda – o‘qituvchining innovatsion salohiyati. Ta‘lim muassasasining innovatsion salohiyati deganda, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorligi, shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun madaniy-ta‘limiy muhitning va shart- sharoitlarning xilma-xilligi hamda kommunikativ munosabatlarning yuqori darajasi tushuniladi. Alohida pedagog uchun esa, bu – uning shaxsidagi ijtimoiy-madaniy va ijodiy o‘ziga xosliklar yig‘indisi, pedagogik faoliyatni takomillashtirishga tayyorligi hamda buning uchun zaruriy ichki vosita va metodlarning mavjudligidir [3].

Innovatsiya – (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma‘noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san‘at, mahorat va “logos” — fan so‘zlaridan olinib innovatsion texnologiya ta‘lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma‘noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Texnologiya- innovatsion texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o‘z oldiga ta‘lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda, dars berish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli usuli.

“Innovatsion texnologiya- bu o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir”.

Oliy ta‘limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo‘lajak mutaxassislarining o‘z yo‘nalishlarida tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi oliy ta‘limni rivojlantirishning strategik vazifalari qatorida keltirilgan. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanishning asosida shaxsda shakllangan tadqiqotchilik qobiliyati turadi. Tadqiqotchilik qobiliyatining dastlabki sifatleri



mutaxassisning sohaga oid muammolarni aniqlay olishi, kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi, topilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi, tanqid va tahlil qilish asosida muammoni hal etishga ijodiy yondasha olishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'z yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha nufuzli tashkilotlarda ishlab ketishlari ko'p jihatdan ularning professional malakalari bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, biz oliy ta'lim o'quv jarayonida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishda samarali natijalar beruvchi omillarni aniqlashni maqsad qilib qo'ydik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- ilmiy tadqiqotning afzalliklarini aniqlash (talaba nima uchun ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishi kerak?);
- o'quv jarayoni tashkiliy jihatlarining talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini asoslash;
- ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash.

O'qituvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning asosiy qismi tadqiqotchilik loyihalarini tashkil etishdir. Bu loyihalar o'qituvchilarga amaliy tadqiqotchilikning bajarilishini tajriba qilish imkonini beradi va ularni o'zizlanishlarini o'rganish uchun o'zlashtiradi. O'qituvchilar loyihalarni maqsad belgilash, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, natijalarnitushuntirish va maqolalar yozish qismiga ajratishadi. O'qituvchilarni tadqiqotchilik faoliyatigatayyorlashning asosiy qismi, ularni tadqiqotchilikusullari va ulardan foydalanishni o'rganishdir. Bu, o'qituvchilarga statistik analiz, anketalar, so'rovnomalar, kasbiy obro'lar, ilmiy konferensiyalardaishtirok etish kabi tadqiqotchilik usullarini o'rganishgaimkon beradi. Kelajakdagi o'qituvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning amaliyasoslari ko'p tomonlama o'quv usullari bilan bog'liq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish o'qituvchi va muallimlarning zimmasiga doimo ulkan vazifalar yuklatadi. Bu usullar o'quvchilarning hamkorlik qilishini, guruhda ishlashni, fikrlar almashishni va kelajakdagi o'qituvchilarning tadqiqot jamlanmasida ishtirok etishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. O'qituvchilaro'quvchilarni guruhlar, ish tarkiblari va hamkorlikjadvali asosida tashkil etish, guruhda ishlashnio'rganish, baholash va takliflarni baholash va qabulqilish jarayonlarida hamkorlikni rag'batlantirishgayordam beradilar. O'qituvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning amaliy asoslari orasidarejalashtirish va maqolalar yozish ham muhim o'rintutadi. O'qituvchilar, ilmiy tadqiqot qilish jarayonlarinirejalashtirish, ilmiy maqolalar yozish, ilmiykonferensiyalarda va simpoziumlarda taklifnomatayyorlash, maqolalar tahrirlash va ilmiy ishni taqdimqilishni o'rganishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF 5748-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (3-bob, 3-paragraf), Toshkent-2019.
2. B.X.Rahimov. Talaba-yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ijtimoiypedagogik asoslari: p.f.d. diss. avtoref. ... - Toshkent, 2009.
3. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
4. Лицман Г.Д. Научно-исследовательская деятельность как средство профессионально-квалификационного роста учителя. специальность 13.00.01- общая педагогика. Екатеринбург, 2002 г. - 212с.



-
5. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.